

**“O‘zaeronavigatsiya” Markazi Davlat Unitar Korxonasining  
Biznes-rejasini bajarilishi to‘g‘risida**  
**HISOBOTI**  
**hisobot davri: 2022-yilning yanvar – dekabr oylari**

**1. Ishlab chiqarish quvvati**

Biznes-rejaga asosan **126 743** ta havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish rejalashtirilgan, shu jumladan tranzit bo‘yicha - **52 083** HK, uchish/qo‘nishni ta‘minlash bo‘yicha - **74 660** HK. Amalda **138 977** ta havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlari ko‘rsatigan bo‘lib, (Biznes-rejaga nisbatan **10** foizga o‘sish), shundan: tranzit bo‘yicha - **81 808** ta havo kemalari (Biznes-rejaga nisbatan **57** foizga o‘sish); uchish/qo‘nishni ta‘minlashda - **57 169** ta havo kemalarini (Biznes – rejaga nisbatan **23** foizga pasayish) tashkil qildi. 2021-yilning tahlil qilingan davrda **85 083** ta havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlari ko‘rsatilgan (2022- yilda **63** foizga o‘sish), shundan: tranzit bo‘yicha **42 865** ta havo kemalariga (2022-yilda **91** foizga o‘sish), uchish/qo‘nishni ta‘minlashda **42 218** ta havo kemalariga (2022-yilda **35** foizga o‘sish) xizmat ko‘rsatish amalga oshirildi.

Uchish/qo‘nishni ta‘minlashda prognoz istiqbol ko‘rsatkichlarining bajarmasligini sababi - dunyodagi geosiyosiy vaziyatdan iboratdir.

**2. Pul mablag‘lari ko‘rinishida ishlab chiqarish hajmi**

Ko‘rsatkichlar	Prognoz (ming. so‘m)	Amalda (ming. so‘m)	O‘sish (foizda)
Jami ishlab chiqarish hajmi, shu jumladan	336 116 000	420 896 507	125
Havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatni taqdim etilishi	329 916 000	407 278 238	123
Boshqa xizmatlar	6 200 000	13 618 268	220

**3. Moliyaviy ko‘rsatkichlar**

Ko‘rsatkichlar	Prognoz (ming. so‘m)	Amalda (ming. so‘m)	O‘sish (foizda)
Jami daromad, shu jumladan	367 116 000	491 694 341	134
Sof daromad	336 116 000	420 896 507	125
Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar	1 000 000	1 269 737	127
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	30 000 000	69 528 097	232
Tannarx	156 832 000	189 504 417	121
Jami davr xarajatlari, shu jumladan:	64 575 000	75 371 248	117
Amalga oshirish bo‘yicha xarajatlari	322 000	0	0
Ma’muriy xarajatlari	5 706 000	9 982 911	175
Boshqa amaliyot xarajatlari	58 547 000	65 388 337	112
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlari	69 200 000	84 157 365	122
Sof foyda / zarar	74 148 000	136 711 535	184

Xizmatlarni amalga oshirishdan olingen sof daromad istiqbol prognoziga nisbatan 25% oshdi.

Tannarxlar prognozga nisbatan 21% oshdi.

Istiqloldagi prognozga nisbatan davr xarajatlari 17% ga ko‘paydi.

Moliyaviy faoliyatdan kelib tushgan daromadlar muddasi 132% ga oshdi.

Sof moliyaviy natija rejalshtirilganga nisbatan 84% oshdi.

#### 4. Soliqlar

Ko‘rsatkichlar	Prognoz (ming. so‘m)	Amalda (ming. so‘m)	O‘sish (foizda)
Jami soliqlar va byudjetga majburiy to‘lovlar, shu jumladan:	46 186 000	50 321 055	109
Daromad solig‘i	2 361 000	5 949 775	252
QQS	-31 000	- 3 570 332	
Aksiz	-	-	-
YaIT	21 300 000	21 275 339	100
Yer osti boyliklaridan foydalanish solig‘i	-	-	-
Boshqalar	22 556 000	26 666 273	118

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining manfiy qiymati (QQS): O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 263-moddasiga muvofiq xalqaro tashish bilan bog‘liq xizmatlarga soliq solish nol stavka bo‘yicha amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, QQS byudjetdan qaytarilishi zarurati yuzaga keladi, ya’ni hisobga qabul qilinadigan QQS miqdori xizmatlarni sotishdan olinadigan QQS miqdoridan yuqoridir.

#### 5. Sof foydani taqsimlash

Nomi	Prognoz (ming. so‘m)	Amalda	O‘sish (foizda)
Sof foya	74 148 000	136 711 535	184
Jami dividendlar to‘loviga, shu jumladan:	0	0	0
Davlat ulushi bo‘yicha	37 074 000	68 355 768	184
Ulardan to‘langan miqdori	0	0	0
Zahira fondiga	0	0	0
Korxonani rivojlantirishga	0	54 684 613	0
Boshqalar	7 414 800	13 671 154	184

#### 6. Qarzdorlik

Nomi	Hisobot davri boshiga (ming. so‘m)	Reja (ming. so‘m)	Hisobot davri ohiriga (ming. so‘m)	Ulardan muddati o‘tgan (ming. so‘m)
Debitorlik qarzdorlik	100 253 956	48 486 000	134 022 064	634 477
Kreditorlik qarzdorlik	17 950 038	14 500 000	7 947 958	0

Muddati o'tgan debitorlik qarzlari O'zbekiston Respublikasi havo hududida tranzit reyslarini amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalarga ko'rsatilgan aeronavigatsiya xizmatlari uchun to'lovlarning to'lanmaganligi natijasida yuzaga keldi.

Ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mablag'lari tushumlarning kelib tushmasli holatlari aviakompaniyalarning inqirozga uchrashi, Aviakompaniya ekspluatanti Sertifikatidan mahrum qilinishi, havo kemalarining lizing shartnomasi muddatlarining tugashi, aviakompaniyaning parvozlar geografiyasining o'zgarishi va aviahalokatlari bilan bog'liq bo'ldi.

Korxonada muddati o'tgan kreditorlik qarzdorligi mavjud emas.

## 7. Tashqi qarz

Nomi	(01.01.2022y.) davri boshiga qoldiq	Olindi	Qaytarildi	ming AQSh dollari (01.01.2023y.) davri ohiriga qoldiq
Korxonaning tashqi qarzi, shu jumladan:	25 870	-	7 869	18 001
Davlat kafolati bo'yicha	25 870	-	7 869	18 001
Dalat kafolatisiz, shu jumladan:	-	-	-	-
Bo'ysunuvchi tashkilotlar kafolati	-	-	-	-
Korxonaning o'z kafolati bo'yicha	-	-	-	-
Boshqa tashkilotlarning kafolati	-	-	-	-

Korxona Samarqand, Buxoro, Urganch aeroportlari havo kemalari parvozlarini ta'minlash bo'yicha radiotexnika asbob-uskunalarini modernizatsiya qilinishiga "O'zbekiston havo yo'llari" MAK va "Aleniya Markoni Sistemz" (Italiya) o'rtasida tuzilgan kontrakt bo'yicha kredit majburiyatlariga ega. Kontraktni moliyalashtirish Hukumat kafolati bo'yicha amalga oshirilgan: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va JBIC (Yaponiya) bankning 17.12.1996-yildagi UZB-P3 hamda 14.12.1996-yildagi UZB-P5-sonlardagi kontraktlari. Uskunalar 2000-yil foydalanishga topshirilgan.

Kredit muddatini kechiktirilishi 2006- yilning 20 dekabrgacha belgilangan.

Kredit bo'yicha hisob-kitoblar to'lovlari jadvallariga asosan 2026-yil va 2029 yilgacha (iyun va dekabrda) amalga oshiriladi.

## 8. Korxonaning tashqi savdo va tashqi moliyaviy faoliyati

Ko'rsatkichlar	Prognoz (ming. AQSh dollari)	Amalda (ming. AQSh dollari)	O'sish (%)
Eksport hajmi	25 200	29 948	119
Import hajmi	6 573	2 411	37
Savdo balansi (eksport va import o'rtaidagi farq)	18 627	27 537	148
Valyuta talabi	0	0	-

## 9. Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari

### 9.1. Asosiy ko'rsatkichlar

“Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagagi 207-sonli Qarorining 1-son Ilovasi) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 dekabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 775-sonli Qarorining Ilomasiga muvofiq, “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKda korxona samaradorligining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

T/r	Ko'rsatkichlar	Me'yor	Solishtirma miqdor (%)	Prognoz	Amalda	Bajarilish foizi (%)	SMK C*F/100
	A	B	C	D	E	F	G
1.	Sotishdan tushgan sof tushum prognozini Amalda bajarilishi (ming so‘m)	-	15	336 117 417	420 896 507	125,22	18,783
2.	Sof foyda prognozini bajarilishi (ming so‘m)	-	15	74 145 233	136 711 535	184,38	27,658
3.	Aktivlarning rentabelligi	> 0,05	8	0,13	0,26	200	16
4.	Ishlab chiqarish quvvati koeffitsiyentidan foydalanish	> 0,05	8	1	1,1	110	8,8
5.	Qoplama koeffitsiyenti (to‘lov qobiliyati)	>0,2	13	10,01	22,02	219,98	28,597
6.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	>1	13	24,64	45,4	184,25	23,953
7.	Eksport ko'rsatkichlarining bajarilish ko'rsatkichi (belgilangan vazifaga % bilan)	-	15	25 200	29 948	118,84	17,826
8.	Xorijiy valyutaning mustaqillik koeffitsiyenti	<1	13	0,26	0,08	30,77	4,0
	Jami:		100,00				145,62

#### 9.1.1. Amalga oshirilishi belgilangan sof tushum prognozini bajarilishi

Ushbu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy holatini tavsiflab, bajarilgan xizmatlarning hajmini ifodalaydi.

Biznes-rejaga nisbatan ushbu ko'rsatkich bo‘yicha o‘sish **25,22** foizni tashkil qiladi. **SMK-18,783**.

#### 9.1.2. Sof daromad prognozini bajarish (zarar)

Bu ko'rsatkich korxona faoliyatining natijalarini aks ettiradi.

Biznes-rejaga nisbatan o'sish **84,38** foizni tashkil qiladi. **SMK-27,658.**

### **9.1.3. Aktivlar rentabelligi**

Mazkur ko'rsatkich tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining daromad keltirish darajasini bildiradi.

*Me'yor: hisobot davridagi rentabellik koeffitsienti quyidagi kattaliklarda bo'lgan holatlarda:*

- *noldan past (manfiy ko'rsatkich) holatda tashkilot kasodga uchragan deb hisoblanadi;*
- *0,05 dan kam holatda tashkilot past rentabellikga ega deb hisoblanadi (monopolist korxonalar bundan istisno).*

Ushbu ko'rsatkich **0,26** foizni tashkil etib, korxona iqtisodiy barqaror hisoblanadi. **SMK-16.**

### **9.1.4. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti**

Ushbu koeffitsient korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tavsiflaydi, bu haqiqiy ishlab chiqarish hajmining mumkin bo'lgan maksimal darajaga nisbati sifatida ifodalanadi (ijaraga olingan va zaxiralangan quvvatni hisobga olmagan holda).

*Me'yor: agar hisobot davrida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti 0,5 yoki o'rta tarmoqdan past kattalikda bo'lsa, ushbu holat tashkilotda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish daroji past ekanligini anglatadi.*

Koeffitsient **1,1** ni tashkil qiladi. **SMK – 8,8.**

### **9.1.5. Qoplama koeffitsiyenti (to'lov qobiliyati)**

Ushbu koeffitsient tashkilotning qisqa muddatli majburiyatlarining to'lov imkoniyatlarini ko'rsatib, ular nafaqat debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish va tayyor mahsulotni qulay realizatsiya qilish, balki joriy (aylanma) aktivlarning boshqa elementlarini ham hisobga olgan holda baholanadi.

*Me'yor: mazkur koeffisientning minimal miqdori - 0,2.*

Koeffitsient **22,02** dan iborat. **SMK – 28,597.**

### **9.1.6. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti**

Ushbu koeffitsient qisqa muddatli zayom qarz mablag'larini qaytarishda o'z manbalari bilan ta'minlanganlik darajasini belgilaydi.

*Me'yor: mazkur koeffisientning minimal miqdori - 1.*

Koeffitsient **45,4** ni tashkil qiladi. **SMK – 23,953.**

### **9.1.7. Eksport ko'rsatkichlarini bajarish ko'rsatkichi**

Bu - tegishli davlat dasturi tomonidan belgilanadigan maqsadli ko'rsatkich (istiqbol prognozi) ko'rsatkichdir.

Koeffitsient **18,8** ni tashkil qiladi. **SMK – 17,826.**

### **9.1.8. Chet el valyutasidan mustaqillik koeffitsiyenti**

Ushbu koeffitsient import va eksportning nisbatini, ya'ni import qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun to'lovlarning tovarlarni eksport qilish orqali qoplanish darajasini ko'rsatadi.

*Me'yor: minimal miqdori 1 dan kam kattalikdan iborat.*

Koeffitsient **0,08** ni tashkil qiladi. **SMK – 4,0.**

Korxona barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan me'yollar doirasida ishlamoqda.

## 9.2. Qo'shimcha ko'rsatkichlar

T/r	Ko'rsatkichlar	Me'yor	Solishtirma miqdor (%)	Prognoz	Amalda	Bajarilish foizi (%)	SMK C*F/100
	A	B	C	D	E	F	G
1.	Foizlar, soliqlar va amortizatsiya oldidan foyda (EBIT)		30	98 580 487	247 886 317	251	75,44
2.	Daromadlar va xarajatlar nisbati (CIR)		15	0,66	0,63	95	14,32
3.	Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	< 0,2	20	5,60	3,2	57	11,43
4.	Kreditorlik qarzdorligining aylanmasi	< 90	5	16	11	145	7,27
5.	Debitorlik qarzdorligining aylanmasi	< 90	5	80	102	78	3,92
6.	Xodimlarni tayyorlash xarajatlari, har bir xodim uchun hisob-kitob qilish		10	4 908	5 208	106	10,61
7.	Kadrlar almashinuvi koeffitsiyenti		7	-	1,02	100	7
8.	Energiya samaradorligi		8	0,02	0,02	100	8
	Jami:		100,00				137,99

### 9.2.1. Foizlar, soliqlar va amortizatsiya oldidan foyda (EBIT)

Bu ko'rsatkich tashkilotga qarz badali og'rligining ko'rsatkichi bo'lib, uning kreditorlar oldidagi qarzini sof pul oqimi bilan to'lash qobiliyatini bildiradi. Umuman olganda, ko'rsatkichning miqdori qanchalik baland bo'lsa, tashkilot shunchalik faol ishlagan hisoblanadi.

Biznes – rejaga nisbatan ko'rsatkich **151** foizga o'sdi. **SMK – 75,44.**

### 9.2.2. Daromadlar va xarajatlar nisbati (CIR)

Mazkur ko'rsatkich amaliyot jarayonlari xarajatlarning (shu jumladan, savdo xarajatlari, tijorat va boshqaruv xarajatlari) daromadga nisbatini aks ettiradi.

*Me'yor: qiymat qanchalik past bo'lsa, tashkilot shunchalik faol ishlaydi.*

Ko'rsatkich **0,63** ni tashkil qiladi. **SMK – 14,32.**

### 9.2.3. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti

Ushbu ko'rsatkich tashkilotning likvidligining eng qat'iy mezoni bo'lib, zarur hollarda qisqa muddatli zayom qarz majburiyatlarining qancha qismini darhol to'lash qobiliyatini ko'rsatadi.

*Me'yor: 0,2 dan kam bo'lmasligi lozim.*

Ko'rsatkich 3,2 ni tashkil qiladi. SMK – 11,43.

#### **9.2.4. Kreditorlik qarzdorligining aylanmasi**

Bu koeffitsient tashkilot kreditorlik qarzlarining o'rtacha miqdorini necha kun muddatida to'lanishini ko'rsatadi. Koeffitsientning yuqori qiymat tashkilotga to'lanmagan kreditorlik qarzlarining qoldig'idan joriy faoliyatini moliyalashtirishning shartli bepul manbai sifatida foydalanishga imkon beradi.

Ko'rsatkich 11 tunni tashkil qiladi. SMK – 7,27.

#### **9.2.5. Debitorlik qarzdorligining aylanmasi**

Ushbu koeffitsient tashkilotning debitorlik qarzlarini to'lash tezligini, tashkilot o'z xaridorlaridan sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovni qanchalik tez olishini o'lchaydi. Umuman olganda, qiymat qanchalik past bo'lsa, ya''ni xaridorlar qarzlarini qanchalik tez to'lasa, tashkilot uchun shuncha ijobiy natijaga erishiladi.

Ko'rsatkich 101 tunni tashkil qiladi. SMK – 3,92.

#### **9.2.6. Xodimlarni tayyorlash xarajatlari**

Ushbu koeffitsient (har bir xodim uchun) xodimlarni o'qitish uchun o'rtacha xodimlar soniga mos xarajatlar nisbatining samaradorligini baholaydi.

Ko'rsatkich 5 208 so'm/kishini tashkil qiladi. SMK – 10,61.

#### **9.2.7. Kadrlar almashinuvi koeffitsiyenti**

Mazkur koeffitsient tashkilot xodimlarining soni necha miqdorga qisqarganligini ko'rsatadi.

Ko'rsatkich 1,02 ni tashkil qiladi. SMK – 7,0.

#### **9.2.8. Energiya samaradorligi**

Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish tannarxi tarkibidagi energiya tannarxining energiya samaradorligi bo'yicha ishlab chiqarish tannarxi tarkibidagi energiya xarajatlari miqdorining koeffitsientini ko'rsatadi.

Ko'rsatkich 0,02 ni tashkil qiladi. SMK – 8,0.

### **10. “O'zaeronavigatsiya” Markazi DUK investitsion loyihalari**

“O'zaeronavigatsiya” Markazi DUKning investitsion loyihalari O'zbekiston Respublikasi investitsiya loyihalariga kiritilmagan.

Investitsion loyihalalar nomi	Inves-titsiya hajmi	Moliyalashtirish manbalari		ming AQSh dollarri		
		Korxonaning o'z mablag'lari	Tashqi manbalar	Reja	Amalda	Foiz
Toshkent aeroporti aerodromi uchun ILS/DME qo'nish	1 328	1 328	-	1 328	1 328	100

Investitsion loyihalar nomi	Inves-titsiya hajmi	Moliyalashtirish manbalari		2022-y.		
		Korxonaning o‘z mablag‘lari	Tashqi manbalar	Reja	Amalda	Foiz
tizimi/uzoq masofani o‘lchovchi uskunasini (2 ta komplekt) masofani aniqlovchi radiomayoqli qo‘nish tizimini sotib olish, o‘rnatish va montaj qilish bo‘yicha qurilish-montaj ishlarini bajarish (2019-2022 y.y.)						
Samarqand shahri aeroportida havo kemalari parvozlarini radiotexnika uskunalarini bilan ta’minalash uskunalarini qilish (2019 - 2022 y.y.)	12 196	12 196	-	420	660	157
Termiz shahri aeroportida havo kemalari parvozlarini radiotexnika uskunalarini bilan ta’minalash uskunalarini rekonstruksiya qilish (2022 - 2023 y.y.)	9 247	9 247	-	5 992	510	9
Toshkent aeroporti aerodromi uchun VRL ikkilamchi radiolokator uskunasini sotib olish, o‘rnatish va montaj qilish bo‘yicha qurilish-montaj ishlarini bajarish (2022-2023y.y.)	1 500	1 500	-	840	0	0
Havo Harakatni Boshqarishning Avtomatlashtirilgan Tizimi Toshkent Markazida ovozli dispatcherlik aloqa tizimi uskunalarini va radioaloqa uskunalarini sotib olish, o‘rnatish (2022-2023y.y.)	2 000	2 000	-	1 120	0	0
Namangan aeroporti aerodromi uchun ILS/DME qo‘nish tizimi/ uzoq masofani o‘lchovchi uskunasini (2 ta komplekt) masofani aniqlovchi radiomayoqli qo‘nish tizimini sotib olish, o‘rnatish va montaj qilish	760	760	-	760	0	0

Investitsion loyihalar nomi	Inves-titsiya hajmi	Moliyalashtirish manbalari		2022-y.		
		Korxonaning o‘z mablag‘lari	Tashqi manbalar	Reja	Amalda	Foiz
bo‘yicha qurilish-montaj ishlarini bajarish (2022y.)						

Korxonaning investitsiya loyihalari havo kemalarida parvozlar xavfsizligini ta’minlashga va O‘zbekiston Respublikasi aerodromlariga qo‘nishga qaratilgan.

*Ma’lumot uchun: “O’zaeronavigatsiya” Markazi DUK Biznes-rejasiga doir ochiq axborot O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining <https://kpi.davaktiv.uz/bussines> hamda “O’zaeronavigatsiya” Markazi DUK [uaeronavigation.com](http://uaeronavigation.com) saytlariga joylashtirilgan.*

Direktor

MIB Boshlig'i



D.I. Djumayev

N.A.Ananova

A handwritten signature in blue ink, appearing to read "D.I. Djumayev".